

7/2-44-son  
2026-yil 3-iyun



**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Iqtisodiyot va moliya vaziri**  
**o‘rinbosari**

\_\_\_\_\_ **J. Qurbonov**  
“\_\_\_” iyun 2026-yil

**O‘zbekiston Respublikas Iqtisodiyot va moliya vazirligi Komplayens xizmati boshqarmasining**  
**2026-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar**  
**REJASI**

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishida</b>				
1.	Tarkibiy tuzilmalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni xatlovdan va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish.	1. Korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlarni, shu jumladan, manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini, ortiqcha ruxsat berish tartib-taomillarini, subyektiv qaror qabul qilishga olib keluvchi normalarni, noaniq va ikki xil talqin qilinishi mumkin bo‘lgan qoidalarni aniqlash. 2. Aniqlangan kamchiliklar va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, zarur hollarda hujjatlarni bekor qilish, qayta ko‘rib chiqish yoki yangi tahrirda qabul qilish, raqamlashtirilishi shart bo‘lgan jarayonlar bo‘yicha aniq takliflar kiritish.	Normativ-huquqiy hujjatlarga taklif	2026-yil iyun-iyul

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati
2.	Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish va shu sohaga oid ichki idoraviy hujjatlarni yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga mosligini qayta ko'rib chiqish.	<p>1. Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki idoraviy hujjatlarni yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlashtirish.</p> <p>2. Eski tahrirda bayon qilingan ichki idoraviy hujjatlarni zaruratga qarab o'zgartirish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil iyun-iyul
3.	Vazirlikda korrupsiyaga qarshi tizimning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash.	<p>1. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligini monitoring qilib borish.</p> <p>2. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining ISO 37001:2025 xalqaro standartini joriy qilish choralarini ko'rish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil 2026-yil dekabr
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish yo'nalishida</b>				
4.	<p>Vazirlik va tarkibiy tuzilmalarning vazifa va funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash.</p> <p>Tizimdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni ma'lumotlar bazasini shakllantirish va uni doimiy yangilab borilishini ta'minlash.</p>	<p>1. Vazifa va funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlab, har yillik baholashdan o'tkazish.</p> <p>2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajalarini (yuqori, o'rta va past) belgilash hamda xaritasini tuzish, korrupsiya xavfiga moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Aniqlangan xavf-xatarlardan kelib chiqib korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ("yo'l xaritasi") ishlab chiqib, xavflarni minimallashtirish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>4. Yuzaga kelayotgan qonunbuzilish holatlari va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni tahlil qilish. Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan kiritilgan taqdimnomalarni tahlil qilish;</li> <li>– vazirlik tizimi xodimlari tomonidan 2024-2025-yillarda sodir etilgan qonun buzilish holatlari hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni tahlil qilish;</li> </ul>	<p>Amaliy chora-tadbirlar</p> <p>xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish</p> <p>yo'l xarita ishlab chiqish</p> <p>Axborot-tahliliy ma'lumotnoma</p>	2026-yil iyun-iyul

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati
		<p>– tahlil natijalariga ko'ra qonun buzilish holatlari hamda korrupsiyaga oid jinoyatlarning sodir etilishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash;</p> <p>– aniqlangan natijalariga ko'ra kelgusida qonun buzilish holatini oldini olish va unga sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p>		
5.	<p>Vazirlik tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan va yangi ishga kirgan boshqaruv xodimlari tomonidan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlarini tahlil qilish va aniqlangan holatlarni bartaraf etish choralari ko'rish.</p> <p>Tizimda uzoq yillar bir xil yo'nalish yoki sohani moliyalashtirish (muvofiqlashtirish) bilan shug'ullanib kelayotgan xodimlarning rotatsiyasi yuzasidan takliflar ishlab chiqish.</p>	<p>1. Vazirlik tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimlarini ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirishini va taqdim etishini tashkil etish. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni yo'riqnoma talablari asosida tekshirish.</p> <p>2. Taqdim etilgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni tahlil qilish. Bunda:</p> <p>– biri ikkinchisining bo'ysunuvida yoki nazorati ostida ishlash holatlarini aniqlash;</p> <p>– xodimlarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish holatlarini aniqlash va ushbu holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish;</p> <p>– xodimning bo'ysunuvidagi yoki nazorati ostidagi tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlash holatlarini aniqlash hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish.</p> <p>3. Tahlil natijalarini ko'rib chiqish uchun Odob-axloq komissiyasiga kiritish va aniqlangan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlarini bartaraf qilish choralari ko'rish.</p>	<p>Amaliy chora-tadbirlar</p> <p>Axborot-tahliliy ma'lumotnoma</p>	2026-yilda

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati
6.	<p>Davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish, davlat xaridlari bo'yicha preventiv o'rganishlarni amalga oshirish.</p> <p>Davlat xaridlari jarayonlarini korrupsiyaviy xatarlarini kamaytirish maqsadida raqamlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish choralarini ko'rish.</p>	<p>Vazirlik bilan shartnomaviy munosabatga kirishayotgan kontragentlarni belgilangan tartibda tekshirish. Ushbu jarayonda hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlar soni xususidagi ma'lumotlarni kiritish va kontragentlarni tekshirish reyestrini yuritish, tekshiruvlar natijalari bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish.</p> <p>Davlat xaridlari jarayonlarida narx monitoringini yuritish bo'yicha G'aznachilik qo'mitasi bilan hamkorlikda avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy qilish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil iyun-sentabr
<b>Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish yo'nalishida</b>				
7.	<p>Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish.</p>	<p>1. Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish yuzasidan mashg'ulotlar, trening, korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasida o'qitish (umumiy va tanishuv) va boshqa tadbirlar tashkil etish.</p> <p>2. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida umumiy o'qitish, korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni maxsus o'qitish, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish dasturlari asosida o'qitishni (mustaqil ta'lim, ma'ruza, seminar, trening) tashkillashtirish va nazoratga olish.</p> <p>3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi O'quv markazida amalga oshirilayotgan malaka oshirish kurslarining maxsus modulida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat siyosati, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, komplayens nazorati va odob-axloq qoidalari bo'yicha mavzular kiritish.</p>	<p>Reja-grafik ishlab chiqish</p> <p>Axborot-tahliliy ma'lumotnoma</p>	2026-yilda

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati
8.	<p>“9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida “Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz” mavzusida tadbirini tashkil etish.</p>	<p>“9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida “Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz” mavzusida tadbirni tashkil etish, bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tadbirda vazirlik markaziy apparati mustaqil bo‘linmalari rahbarlari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarning sohaga mas’ul vakillari ishtirokini hamda hududiy bo‘linmalaridagi barcha xodimlarini onlayn tarzda (ZOOM orqali) ishtirok etishini ta’minlash;</li> <li>- tadbirga Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda ommaviy axborot vositalari vakillarini taklif etish.</li> </ul>	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil dekabr
<p><b>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish yo‘nalishida</b></p>				
9.	<p>Huquqni muhofaza qiluvchi va sud idoralari tomonidan kiritilgan taqdimnomalar, shuningdek, boshqa zaruriy holatlar yuzasidan xizmat o‘rganishlarini o‘tkazish.</p>	<p>Huquqni muhofaza qiluvchi va sud idoralari tomonidan kiritilgan taqdimnomalar, shuningdek, xizmat o‘rganishiga asos bo‘luvchi boshqa holatlar yuzaga kelganda belgilangan tartibda xizmat o‘rganishini o‘tkazish.</p> <p>O‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasida qonun buzilishi holatlari aniqlangan holatlarda hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborilishini ta’minlash.</p> <p>Xizmat o‘rganishida aniqlangan holatlarni tahlil qilib, bunga sabab bo‘lgan omillarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil talab etilgan hollarda

*\*Izoh: Chora-tadbirlar rejasida ko‘rsatilmagan, lekin dolzarbligi yuqori bo‘lgan masalalar vazirlik rahbariyati bilan kelishilgan holda navbatdan tashqari (birinchi navbatda) o‘rganib chiqilishi mumkin.*

**Kiritildi:**

Komplayens xizmati  
boshqarmasi boshlig‘i

A. Azimov